

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoferasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

O'ZBEKİSTON TASHQI SIYOSATIDA XALQARO HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI

ПОДНЯТИЕ НА НОВЫЙ УРОВЕНЬ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

BRINGING TO A NEW LEVEL INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FOREIGN POLICY OF UZBEKISTAN

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xo'ja qizi¹

1Shamsiyeva Maxfuzaxon Xo'ja qizi

– Farg'ona davlat universiteti, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro munosabatlarda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib borishi natijasida strategik sherikchilik va savdo-iqtisodiy hamkorlik tubdan yangi darajaga ko'tarilganligi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье раскрывается, что в результате открытой, взаимовыгодной и конструктивной внешней политики Узбекистана в международных отношениях с зарубежными странами стратегическое партнерство и торгово-экономическое сотрудничество вышли на совершенно новый уровень.

Abstract

This article reveals that as a result of an open, mutually beneficial and constructive foreign policy of Uzbekistan in international relations with foreign countries, strategic partnership and trade and economic cooperation have reached a completely new level.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, tashqi siyosat, strategiksheriklik, Yevropalitifoqi, GSP+, Yevropabozori, savdo, tovar, boj.

Ключевые слова: Узбекистан, внешняя политика, стратегическое партнерство, Европейский Союз, GSP+, европейский рынок, торговля, товары, пошлины.

Key words: Uzbekistan, foreign policy, strategic partnership, European Union, GSP+, European market, trade, goods, tax.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy vazifalari "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [1], O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-18-moddalarida [2], 2022-yil 28-yunvarda tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da [3] o'z aksini topgan.

Shuni aytish joizki, O'zbekiston o'zining ochiq tashqi siyosatida asosiy e'tiborni siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va boshqa sohalarga, shuningdek, O'zbekiston atrofida tinch, barqaror hamda xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratmoqda.

So'nggi besh yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan yaxshi qo'shnichilik, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish, chegaralarni kesib o'tish, transport kommunikasiyalaridan foydalanish kabi murakkab muammolarga yechim topildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonning yaqin xorijiy hamkorlari hamda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va strategik hamkorligi ham jadal rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining AQSHga rasmiyi tashrifi doirasida "O'zbekiston va AQSH: Strategik sheriklikning yangi davri boshlanishi" deb nomlangan

TARIX

qo'shma bayonotning imzolanishi ikki davlat o'ttasida munosabatlarni yuqori darajaga olib chiqdi. 2021-yilda O'zbekiston va AQSH siyosiy maslahatlashuvি Strategik sheriklik muloqotiga aylantirildi.

O'zbekiston-Turkiya o'ttasidagi aloqalar ham barcha sohalarda jadal rivojlanib bugun Turkiya O'zbekistonning asosiy tashqi-savdo hamkoriga aylanib bormoqda. Ikki davlat o'ttasida o'zaro savdo hajmining jadal o'sishi natijasida, 2021-yilda Turkiya O'zbekistonning to'rtinchı savdo sheriiga aylandi. 2021-yilda O'zbekiston-Turkiya umumiy tashqi savdo ko'rsatkichi 3 mlrd. 388 mln. dollarga yetdi.

O'zbekiston-Xitoy strategik sheriklik munosabatlari ham siyosiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, qishloq xo'jaligi, qurilish, ilm-fan va ta'lif sohalarida jadal va o'zaro manfaatli asosda rivojlanib bormoqda. Xitoya rasmiy tashriflar doirasida O'zbekiston Prezidentining "Bir makon, bir yo'l" forumlarida (2017–2019-yillarda) ishtiroki iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishda muhim o'rinn tutadi. Qolaversa, O'zbekiston-Xitoy munosabatlari ko'p tomonlama hamkorlikning yangi shakli - tashqi ishlar vazirlari darajasidagi "Markaziy Osiyo – Xitoy" formati bilan boyidi.

2017–2021–yillar davomida Xitoydan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan jami investitsiyalar 9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2021-yilda umumiy tashqi savdo hajmi rekord ko'rsatkich – 7 mlrd. 440 mln. dollardan oshdi [4:96-103].

Bugun O'zbekistonning Koreya Respublikasi, Yaponiya, Hindiston va Pokiston bilan turli sohalarni qamrab olgan strategik hamkorligi hamda Misr, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arablar Amirliklari, Eron, Malayziya, Indoneziya, Singapur va boshqa Yaqin Sharq, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlari tubdan yangi darajaga ko'tarilib, hamkorlikda bir qator qo'shma loyihibar muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashqi siyosatida Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar bilan har taraflama manfaatli hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr ichida qit'aning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2018-yildan O'zbekiston-Yevropa Ittifoqi o'ttasida "Sheriklik va hamkorlik to'g'risida" bitim tuzish bo'yicha muzokaralar boshlanib, 2022-yil iyul oyida Bitim tasdiqlanishiga erishildi. Ushbu tarixiy va taraqqiyotga xizmat qiluvchi bitim – iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik, energetika, transport, atrof-muhit va iqlim o'zgarishi, raqamlı iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va qishloq joylarini rivojlantirish, bandlik va ijtimoiy masalalar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar kabi yo'naliishlarni o'z ichiga oladi.

2019-yil 12-noyabr oyida Yevropa Ittifoqi O'zbekistonga GSP+ tizimi doirasida tovarlarni boj to'lovisiz olib kirishda yordam berishga tayyorligini bildirdi. O'zbekiston "GSP+" tizimi benefitsiari maqomini olish uchun Yevropa Ittifoqining barcha shartlarini bajardi. Jumladan, 27 ta xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qildi va pirovardida 2021-yilning 10-apreldidan O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus preferensiylar tizimi (GSP+) kuchga kirdi. GSP+ imtiyozlari doirasida O'zbekiston Yevropa bozoriga 6200 dan ortiq tovarlar pozitsiyalarini bojxona bojlarisiz eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi [4:101].

Mazkur tizim imtiyozlarining qo'llanishi O'zbekiston mahsulotlarining Yevropa bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlagani holda, ularning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

Xususan, qisqa vaqt ichida Yevropa Ittifoqining yirik kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihibar qiymati 20 milliard dollardan oshdi. O'zbekiston umumiy savdo aylanmasining 12 foizga yaqini, umumiy eksportning esa 4 foizi va jami importning 17 foizi Yevropa Ittifoqi hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida Germaniya (19,7 foiz), Litva (13 foiz), Italiya (11,1 foiz), Niderlandiya (7,4 foiz), Fransiya (7,2 foiz), Polsha (6,4 foiz), Latviya (6 foiz), Chexiya (5,1 foiz), Ispaniya (4,1 foiz), Vengriya (3 foiz) va Avstriya (2,7 foiz) umumiy savdo aylanmasini bo'yicha O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari hisoblanadi [5].

2022-yilda O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'ttasidagi umumiy savdo hajmi qariyb 16 foizga o'sib, 4,5 milliard dollarni tashkil etdi, bunday o'sishga O'zbekistonning maxsus GSP+ imtiyozlar tizimiga kiritilishi katta turki bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalari muhim o'rinn tutadi.

XULOSA

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida an'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish borasida ishga solinmagan imkoniyatlar juda katta. Jumladan;

- mamlakatimizda Yevropa Ittifoqi talablariga muvofiq zamонавиу laboratoriylar, standartlashtirish va sertifikatlash markazlari tarmog'ini yaratish;

- Yevropa bozorlarida investitsiyaviy sheriklik, tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk savdosi sohalari bo'yicha ishslash uchun mutaxassislarning bilim va salohiyatini yanada rivojlantirish;

- Yevropa kompaniyalarining mintaqasi mamlakatlari savdo imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish kabi masalalarga e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5400-son qarori // <https://lex.uz/docs/> 05.04.2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/> 30.04.2023.
3. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/28.01.2022>.
4. Хакимов Ф. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати: асосий устувор йўналишлар ва эришилган натижалар. // Strategy of Uzbekistan №04 (2021).
5. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-evropa-ittifoqi-barqaror-va-istiqbolli-hamkorlik>.